



Tadqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2025

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2025

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

NOYABR

№ 82
TOSHKENT



CONFERENCES.UZ



**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР 2-
ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-2**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC
RESEARCH PART-2**

ТОШКЕНТ-2025



TALABALARNI MILLIY KONTENT VOSITASIDA 4+2 MALAKAVIY AMALIYOTINI TASHKIL ETISHNING DOLZARBLIGI

Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Email: abdurasulmirzaakbarov95@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim tizimida 4+2 modeli asosida tashkil etilayotgan malakaviy amaliyotning metodologik va ijtimoiy ahamiyati milliy kontent bilan integratsiya qilish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy kontent asosida tashkil etilgan amaliyot talabalarning kasbiy kompetensiyalari, madaniy identiteti va refleksiv fikrlashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: 4+2 modeli, dual ta'lim, milliy kontent, kompetensiyaviy yondashuv, amaliy ta'lim, oliy ta'lim transformatsiyasi.

THE RELEVANCE OF ORGANIZING 4+2 PROFESSIONAL PRACTICE OF STUDENTS THROUGH NATIONAL CONTENT

Abstract. This study analyzes the methodological and social significance of organizing professional practice within the 4+2 model in the higher education system from the perspective of its integration with national content. The research findings indicate that practice organized on the basis of national content serves as a crucial factor in developing students' professional competencies, cultural identity, and reflective thinking.

Keywords: 4+2 model, dual education, national content, competency-based approach, practical education, higher education transformation.

АКТУАЛЬНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПРАКТИКИ СТУДЕНТОВ ПО МЕТОДУ 4+2 НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНОГО КОНТЕНТА

Аннотация. В данном исследовании анализируется методологическая и социальная значимость организации профессиональной практики в рамках модели 4+2 в системе высшего образования с точки зрения ее интеграции с национальным содержанием. Результаты исследования показывают, что практика, организованная на основе национального содержания, является решающим фактором в развитии профессиональных компетенций студентов, их культурной идентичности и рефлексивного мышления.

Ключевые слова: модель 4+2, дуальное образование, национальное содержание, компетентностный подход, практическое образование, трансформация высшего образования.



Kirish (Introduction/ Введение). O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018 yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli qarori oliy ta'limni zamon talablariga moslashtirishni maqsad qilib qo'ygan[1]. XXI asrda oliy ta'lim tizimi tubdan transformatsiyalanib, bilim berishdan ko'ra kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan paradigmaga o'tmoqda. Bu jarayon Higher Education (4.0) konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ta'lim ishlab chiqarish, jamiyat va innovatsiyalar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etiladi. Mazkur kontekstda 4+2 modeli (haftaning 4 kuni nazariya, 2 kuni amaliyot) dual ta'lim tizimining modernizatsiyalashgan shakli sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili (Literature analysi/Анализ литературы.). Zamonaviy pedagogika va oliy ta'lim tadqiqotlarida nazariya va amaliyot integratsiyasi masalasi ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, dual ta'lim tizimi va unga yaqin bo'lgan 4+2 modeli doirasida olib borilgan tadqiqotlar talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda amaliy faoliyatning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda dual ta'lim tizimi, avvalo, Germaniya tajribasi asosida o'rganilgan bo'lib, unda nazariya va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asosiy prinsip sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology/ Методология исследования). Mazkur tadqiqot talabalarni milliy kontent vositasida 4+2 malakaviy amaliyotini tashkil etishning pedagogik asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, kompleks va integrativ metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotning metodologik bazasi zamonaviy pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, tajribaviy o'qitish (experiential learning) hamda dual ta'lim nazariyalariga tayanadi.

Tadqiqot quyidagi ilmiy konsepsiyalarga asoslanadi: Kompetensiyaviy yondashuv – ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirish va talabalarda kasbiy hamda umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi [2]. Tajribaviy o'qitish nazariyasi – bilimlar amaliy faoliyat jarayonida shakllanishini asoslaydi va refleksiya orqali mustahkamlanishini ta'kidlaydi [4]. Dual ta'lim konsepsiyasi – nazariya va amaliyotni integratsiyalashgan holda tashkil etishni nazarda tutadi [5]. Mazkur yondashuvlar tadqiqotning nazariy asosini tashkil etib, 4+2 modelini milliy kontent bilan integratsiyalash imkoniyatlarini ilmiy jihatdan izohlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar tizimli ravishda qo'llanildi:

- a) 4+2 modelining strukturaviy komponentlari (nazariya, amaliyot, refleksiya) o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Ushbu metod orqali modelning ichki mexanizmlari va samaradorlik omillari aniqlashtirildi.
- b) An'anaviy ta'lim modeli va 4+2 modeli o'rtasidagi farqlar, shuningdek, milliy kontent bilan boyitilgan va boyitilmagan amaliyot natijalari solishtirildi.
- c) Talabalarning amaliyot jarayonidagi faoliyati, ularning kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalaridagi o'zgarishlar tizimli ravishda kuzatildi.
- d) Milliy kontent elementlari (madaniy qadriyatlar, an'analar, mahalliy tajriba) o'quv jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari tahlil qilindi.



Natijalar va tahlil (Results and analysis/ Результаты и анализ). Tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy jihatlarini ochib berdi:

1. 4+2 modeli dual ta'limning moslashuvchan varianti bo'lib, u nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviylikni ta'minlaydi. Ushbu modelda talabalar real ish muhitida tajriba orttiradi, bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi.


2. Milliy kontent quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) milliy qadriyatlar
- b) tarixiy tajriba
- c) ijtimoiy-madaniy muhit
- d) mahalliy mehnat bozori ehtiyojlari
- e) Milliy kontent asosida tashkil etilgan amaliyot talabalarning:
- f) kasbiy identitetini
- g) ijtimoiy mas'uliyatini
- h) madaniy tafakkurini rivojlantiradi

3. Milliy kontent asosida tashkil etilgan 4+2 modeli:

- o'quv materialining hayotiylikini oshiradi
- motivatsiyani kuchaytiradi
- bilimlarning amaliy qo'llanishini ta'minlaydi

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy oliy ta'lim tizimida



sikli

ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta'lim jarayonini faqat bilim berish emas, balki faoliyatga yo'naltirilgan tizimga aylantiradi. Shuningdek, milliy kontentning integratsiyasi ta'limni lokallashtirish (localization of education) jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu esa global va milliy ta'lim modellarining uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

Xulosa (Conclusion/ Заключение). Xulosa o'rnida aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash va uni oshirish masalasi har bir davlatning ta'lim bo'yicha olib borayotgan siyosatiga qanchalik muvofiqligi bilan bir-biridan farqlanadi. Jumladan, O'zbekistonda ham ta'lim sifatini ta'minlashning mo'tadilligiga erishish qaysidir ma'noda birinchi bosqichda ko'zlangan maqsad bo'lsa, keyingi bosqichlarda ta'lim sifati kafolatini ta'minlash asosiy vazifasi sifatida bo'lishi lozim. 4+2 modeli oliy ta'limda dual yondashuvni samarali amalga oshirishning innovatsion shaklidir, milliy kontent ushbu modelning mazmunini asosini boyitib, uning samaradorligini oshiradi, milliy kontent asosida tashkil etilgan amaliyot talabalarning kompleks kompetensiyalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References/ Литература)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/3765925>
2. Developing logical thinking through teaching basic quantities in the primary grade (Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich &



Azamjonova Farangiz Akmaljon qizi, Trans.). *Partner Conferences of the International Scientific Journal Research Focus*, 1(1), 203-206. <https://refocus-conferences.uz/index.php/PCISJRF/article/view/308>

3. Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich. Pedagogical and psychological foundations of teaching students based on national content. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17228152>
4. Mirzaakbarovich M.A. Ways to teach future teachers to think logically through japanese puzzles. (2024). Conferencea, 12-16. <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/3120>
5. Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich. The relevance of educating primary education students based on national content. The Conference Hub, 8-12. <https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/169>
6. Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich. The relevance of educating primary education students based on national content. The Conference Hub, 38-43. <https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/170>
7. The importance of the methodology of teaching algebraic materials (Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich, Qambaraliyeva Maftuna Hamidullo qizi, Trans.). *Partner Conferences of the International Scientific Journal Research Focus*, 1(1), 871-875. <https://refocus-conferences.uz/index.php/PCISJRF/article/view/534>
8. The importance of teaching multiplication and division methods (Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich & Yusupova Aziza Abdulaziz kizi, Trans.). *Partner Conferences of the International Scientific Journal Research Focus*, 1(1), 54-59.

<https://refocus-conferences.uz/index.php/PCISJRF/article/view/261>



Mamatkulova Nodira Maxkamovna

XORIJIY INVESTITSİYALARNI QISHLOQ XO'JALIGI SEKTORIGA JALB ETISH MEKANIZMI.....71

Ulmasova Oygul Baxtiyrovna

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI.....74

Xujayeva Nigora Yo'ldashevna

MINTAQAVIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....77

Yuldasheva Zuhrajon Urazboy qizi

KONSTITUTSIYA - ERKIN VA FAROVON JAMIYATIMIZ GAROVI.....80

**ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Baxriddinov Dostonbek Baxtiyor o'g'li

O'QUVCHILARNING SHAXSIY RIVOJLANISHIDA AKMEOLOGIK MOTIVATSİYANING AHAMIYATI.....85

Suyunova Sunbula Sadi qizi

O'SMIR MULOQOTINING ZAMONAVIY SHAKLLARI VA PEDAGOGIK JIHATLAR.....89

Suyunova Sunbula Sadi qizi

O'SMIR SHAXSIDA MULOQOT EHTIYOJI VA KOMMUNIKATIV MOTIVATSİYA.....96

Khonkhodjaeva Nodira Bakhtiyarovna

ASPECTS OF ENVIRONMENTAL SUSTAINABILITY.....102

Rahmatova F.G'., Nurmurodova Sh.Z.

STEAM TA'LIMI VA UNING KELIB CHIQISH TARIXI.....108

Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich

TALABALARNI MILLIY KONTENT VOSITASIDA 4+2 MALAKAVIY AMALIYOTINI TASHKIL ETISHNING DOLZARBLIGI.....112

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИ

Alisherxonov Fozilxon

DJAKKOMO ROSSINING IJODIY MEROSI VA UNING OPERA RIVOJIDAGI O'RNI.....116

ТАСВИРИЙ САЊАТ ВА ДИЗАЙН ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Yakubova Nafisa Odiljanovna, Abdusattorova Diyora Sanjar qizi

KERAMIKA IDISHLARIDAN FOYDALANISH VA TAYYORLASH.....120

Yakubova Nafisa Odiljanovna, Akbaraliyev Bunyodjon Bahromjon o'g'li

AMALIY BEZAK SAN'ATINI KULOLCHILIKDAGI O'RNI.....123